

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENTDAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI

"MUXANDISLIK TEXNOLOGIYALARI" FAKULTETI

Abdullayeva G.T., Toshtemirova M.J., Xoziyeva S.N., Soatov A.M.



fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

USLUBIY KO'RSATMA

Toshkent – 2022



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O,,RTAMAXSUS TA"LIM
VAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENTDAVLATTEXNIKA
UNIVERSITETI


“MUXANDISLIK TEXNOLOGIYALARI” FAKULTETI

«BIOTEXNOLOGIYA» kafedrasi

OQSILLAR MUHANDISLIGI

fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun

USLUBIY KO'RSATMALAR



Toshkent – 2022

Abdullahayeva G.T., Toshtemirova M.J., Xoziyeva S.N., Soatov A.M.
"Oqsillar muxandisligi" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy ko'rsatma. -T.: ToshDTU, 2022.

Biotexnologiya yo'naliishi talabalari uchun mo'ljallangan ushbu "Oqsillar muxandisligi" fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish uchun yo'zilgan uslubiy ko'rsatmasida oqsillar muxandisligi fanining maqsadi, vazifalari, o'ziga xos jihatlari, oqsillar ajratib olish biotexnologiyasi haqidagi malumotlar keltirilgan. Shuningdek, ko'rsatmada o'quv fani bo'yicha bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlar va ularning olib borilish prinsiplari yoritilgan. Uslubiy ko'rsatmada keltirilgan amaliy mashg'ulotlar - Biotexnologiya kafedrasida olib borilayotgan amaliy va laboratoriya ishlari asosida tuzilgan.

Uslubiy ko'rsatmada oqsillarning turli o'simliklar va hayvon xom-ashyolaridan ajratib olish texnologik usullari ularning biologic, fiziologik faoliiklarini o'rganish borasida amaliy ishlar keltirilgan. Har bir amaliy mashg'ulotlarini qisqacha nazariy qismi va bajariladigan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Bu talabalaming tegishli mavzuni oson o'zlashtirishi va chuqurroq tushunishi uchun imkon bo'ladi.


Uslubiy ko'rsatma — 60710200 – Biotexnologiya (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bakalavriat talabalari uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:


Abdullaeva M.M. – O'zMU professori, biologiya fanlari doktori;

Nazarov K.K. – TDTU dotsenti, biologiya fanlari nomzodi;

Uslubiy ko'rsatma muxandislik- texnologiyalari fakultetining Biotexnologiya kafedrasi majlisida (2022 yil — № -son bayonnomma) muhokama etildi va fakultetning o'quv-uslubiy kengashiga tavsiya etildi.

Kafedra mudiri  t.f.n. dots. Nazarov K.K.

Uslubiy ko'rsatma muxandislik - texnologiyalari fakultetining o'quv - uslubiy kengashida ko'rib chiqildi (2022 yil — № -son bayonnomma)

Fakultet o'quv-uslubiy kengash raisi  I.m.f.f.d.(PhD)dots.D.B. Elmurotova

Ushbu uslubiy ko'rsatma TDTU, Ilmiy-uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsiya etilgan. Bayonnomma №

Ilmiy uslubiy Kengash kotibi

Mambetov N

Toshkent davlat texnika universiteti, 2022



KIRISH

Hozirgi vaqtida oqsil muhandisligining eng mashhur qo'llanilishi "ekologik toza" sanoat jarayonlarini ishlab chiqish uchun fermentlarning katalitik xususiyatlarni o'zgartirishdir. Sanoat dasturlariga qo'shimcha ravishda, oqsil muhandisligi tibbiyot ishlanmalarida o'zining munosib o'rnnini topdi. Tadqiqotchilar viruslar va mutant o'simtalarni keltirib chiqaruvchi genlar bilan bog'lanib, ularni zararsiz holga keltiradigan oqsillarni sintez qilishmoqda; yuqori samarali vaktsinalar yaratish va ko'pincha farmatsevtika preparatlari uchun maqsad bo'lgan hujayra yuzasi retseptorlari oqsillarni o'rganish. Oziq-ovqat mahsulotlarini yaxshilash bo'yicha olimlar o'simlik oziq-ovqatlarini, shuningdek, jellestirici moddalarni yoki quyuqlashtiruvchi moddalarni saqlaydigan oqsillarning sifatini yaxshilash uchun protein muhandisligidan foydalanadilar.

Oqsillar muhandisligini qo'llashning yana bir sohasi kimyoviy va biologik hujumlar uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan moddalarni mikroorganizmlarni zararsizlantirishi mumkin bo'lgan oqsillarni yaratishdir. Masalan, gidrolaza fermentlari asab gazlarini ham, qishloq xo'jaligi pestitsidlarini ham zararsizlantirishi mumkin. Shu bilan birga, fermentlarni ishlab chiqarish, saqlash va ishlatish atrof-muhit va inson salomatligi uchun xavfli emas. O'zgartirilgan oqsilni olish uchun kombinatoryal kimyo usullari qo'llaniladi va yo'naltirilgan mutagenez - aminokislotalar ketma-ketligida ma'lum o'zgarishlarga olib keladigan kodlovchi DNK ketma-ketliklarida o'ziga xos o'zgarishlarni kiritish. Istalgan xossalarga ega bo'lgan oqsilni samarali loyihalash uchun oqsilning fazoviy tuzilishini shakllantirish qonuniyatlarini bilish, uning fizik-kimyoviy xususiyatlari va funktsiyalari bog'liqligini bilish kerak, ya'ni oqsilning birlamchi tuzilishi qanday ekanligini bilish kerak. , uning har bir aminokislota qoldig'i oqsilning xususiyatlari va funktsiyalariga ta'sir qiladi. Afsuski, ko'pchilik oqsillar uchun uchinchi darajali tuzilma noma'lum, kerakli xususiyatlarga ega bo'lgan oqsilni olish uchun qaysi aminokislotalar yoki aminokislotalar ketma-ketligini o'zgartirish kerakligi har doim ham ma'lum emas. Allaqachon, kompyuter tahlilidan foydalanadigan olimlar aminokislotalar qoldiqlari ketma-ketligi asosida ko'plab oqsillarning xususiyatlarni taxmin qilishlari mumkin. Bunday tahlil kerakli oqsillarni yaratish tartibini sezilarli darajada soddalashtiradi. Shu bilan birga, kerakli xususiyatlarga ega modifikatsiyalangan oqsilni olish uchun ular asosan boshqa yo'l bilan boradilar: ular bir nechta mutant genlarni oladi va ulardan birining kerakli xususiyatlarga ega bo'lgan protein mahsulotini topadi.

Fanni oqitishdan maqsad oqsilarning kimyoviy tuzilishini o'rganish uchun ularni individual xolda qanday qilib biologic ob'ektlardan ajratib olish, ularni biologic faolligini aniqlash uslublari va oqsillar muhandisligi metodlari yordamida qanday qilib sanoat miqiyosida qollsh imkoniyatlari xaqida talabalarga aniq bilim berish, xamda biotexnologik yondoshishlar asosida turli maxsulotlat olishni zamonaviy texnologiyasini yaratish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir.

Fanning vazifasi- talabalarga zamonaviy biotrxnologiyaning asosi bo'lgan «oqsillar kimyosi» soxasida keyingi paytlarda shiddatli rivojlanayotgan zamonaviy fizik-kimyoviy usullarni tushuntirish, ulardan foydalanish usullarini o'rgatish, xamda ko'pgina usullarni takomillashtirish ko'nikmalarni shakllantirish, fanni xozirgi zamonda tutgan o'rni va fan yutuqlari bilan talabalarni tanishtirishdan iborat.

1-AMALIY MASHG'ULOT


OQSIL MOLEKULASINING AMINOKISLOTA TARKIBINI ANIQLASH USULLARI

α -AMINOKISLOTLARGA O'TKAZILADIGAN NINGIDRIN REAKSIYASI

Ushbu reaksiya aminokislarning α -holatida turgan aminoguruhlariga xosdir.

Reaksiyaning asoslanishi. Ningidrin ta'sirida oksidlangan α -aminokislot dezaminlanadi, dekarboksillanadi. Natijada CO_2 , ammiak, aldegid hosil bo'ladi. Oksidlangan ningidrin qaytarilgan ningidrinning ikkinchi molekulasi bilan ammiak ishtirokida birikib binafsha-ko'k rangli kondensatsiyalangan mahsulotni hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: 0,1% li ningidrinning spirtli eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. Probirkadagi 4-5 tomchi oqsil eritmasiga 3-4 tomchi ningidrin eritmasidan solib, 1-2 daqqa qizdiriladi. Ko'kimtir-binafsha yoki binafsha rang hosil bo'ladi.


2-AMALIY MASHG'ULOT

SIKLIK AMINOKISLOTALARGA O'TKAZILADIGAN KSANTOPROTEIN REAKSIYASI

Ushbu reaksiya oqsil eritmasida siklik aminokislotalar, fenilalanin, tirozin, glistidin va tpirtofan borligini isbotlaydi.

Reaksiyaning asoslanishi. Oqsil eritmasiga konsentrangan nitrat kislota qo'shilganda benzol xalqanining nitrallanishi natijasida sariq rang hosil bo'ladi. Eritmaga ishqor qo'shilganda esa, u sarg'ish-pushti rangga o'tadi (sariq rangli nitrobirkma hosil bo'ladi).

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material. Oqsil eritmasi.

Reaktivlar: konsentrangan nitrat kislota, natriy gidroksidning 20% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar, spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. 4-5 tomchi oqsil eritmasiga 1-2 tomchi konsentrangan nitrat kilota solib, ehtiyyotkorlik bilan qizdiriladi. Suyuqlik dinitrotirozin hosil bo'lganligi sababli sariq tusga kiradi. Eritma ustiga 2-3 tomchi natriy gidroksid eritmasidan solinganda sarg'ish-pushti rang hosil bo'lgani kuzatiladi, chunki dinitrotirozinning natriyli tuzi hosil bo'ladi.

3-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ

OQSIL GIDROLIZATI – AMINOKISLOTALAR ARALASHMASINI XROMATOGRAFIYA USULI BILAN AJRATISH

Gidrolizat tarkibidagi aminokislotalar aralashmasini ajratish va ayrim aminokislotalarning sifat va miqdorini aniqlashda qog‘ozda o‘tkaziladigan taqsimlovchi xromatografiya usuli keng qo‘llaniladi. Bu usul M.C.Цвет ning 1903 yilda taklif qilgan xromatografiya analizining o‘zgartirilgan ko‘rinishidir.

Aminokislotalarni ajratish ularni ikkita aralashmaydigan eritmada (biri suv, ikkinchisi suv bilan to‘yintirilgan organik eritma) erish xususiyatini aniqlash orqali amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtida xromatografiya usulining quyidagi xillari mavjud: adsorbsion usul aminokislotalarning turli adsorbentlarda adsorbsiyalanishiga bog‘liq; ion almashtiruvchi xromatografiya usuli aminokislotalarning zaryadiga qarab kationit yoki anionitlardan foydalaniadi. Afin xromatografiya – xususiy bog‘lanish holatiga ega bo‘lgan fermentlar, immunoglobulinlar, retseptor va gormonlardan foydalanib tegishli birikmalar ajratiladi.

Aminokislotalar aralashmasini qog‘oz xromatografiya usuli bilan ajratish. Ushbu usul mahsus tayyorlangan xromatografiya – filtr qog‘ozida o‘tkaziladi. Namlangan kameraga joylashtirilgan xromatografiya qog‘ozi 20-22% suvni ushlab qolish xususiyatiga ega. Demak, suv harakatlanmaydigan faza, chunki u qog‘ozga shimalgan, harakatlanuvchi faza sifatida organik erituvchilardan foydalaniadi. Ularga suv bilan to‘yintirilgan izopropil, izobutil, butil spirlari, fenol va boshqalar kiradi. Xromatografiya qog‘oziga bir tochi aminokislota aralashmasidan tomiziladi, qog‘ozning ikkinchi uchi tegishli organik erituvchiga tushiriladi. Erituvchi qog‘oz bo‘lakchasi bo‘ylab shimila boshlaydi va erigan aminokislotani o‘zi bilan birga yo‘naltiradi. Aminokislotalarning qog‘oz bo‘lakchasi haramatlanish tezligi uning eruvchanligiga bog‘liq. Aminokislota suvda qancha yaxshi erisa, organik erituvchida shuncha yomon eriydi va organik erituvchiga nisbatan harakatlanish tezligi sust bo‘ladi. Shu yo‘l bilan aminokislotalar turli masofada taqsimlanadi.

Aminokislotalarni xromatografiya qog‘ozida harakatlanishiga qarab; yuqoriga, pastga va doira bo‘ylab harakatlanuvchi xromatografiya turlari tafovut qilinadi.

Aminokislotalarning xromatografiya qog‘ozida taqsimlanish masofalari α -aminokislotalar uchun o‘tkaziladigan ningidrin reaksiyasi yordaida aniqlanadi. Aralashmadagi muayyan aminokislotani aniqlash uchun xromatografiya qog‘oziga guvoh aminokislotalar tomiziladi va shu aminokislotalarning masofasiga ko‘ra tegishli aminokislota taqsimlanish koeffitsienti Rf ga ko‘ra aniqlanishi mumkin.

$Rf = a/b$. Bunda α -aminokislarning tomizilgan joydan o'tgan masofasi, b – eritmaning o'tgan masofasi. Masofalar mm da o'chanadi.

Koeffitsient Rf har qanday aminokislota uchun tajriba o'tkazilayotgan sharoitda xususiy kattalikdir.

Tekshiriluvchi material: gidrolizlangan aminokislota aralashmasi.

Reaktivlar: tirozinning 0,4% li eritmasi, glutamin kislotaning 0,6% li eritmasi, leysinning 0,5% li eritmasi, ningidrinning atsetondagi 0,2% li eritmasi va yuqoridagi aminokislolar aralashmasi, erituvchi sistemalari 15:15:10 nisbatda olingan butil spirti, sirka kislota va suv aralashmasi.

Kerakli anjomlar: xromatografiya filtr qog'oz, Petri kosachasi, xromatogrammalarni ilish uchun moslama, purkagich, 105°C li quritgich shkaf, qaychi, skalpellar, shisha tomizgichlar, qalin nina.

Bajariladigan ish tartibi. Xromatografiya usuli bilan aminokislolarini ajratish uchun ishlatiladigan kameralar 6-rasmda keltirilgan (yuqoriga, pastga va aylana harakatlanadigan aminokislolar xromatografiyasi).

1. Xromatografiya filtr qog'ozidan 11x11 sm li to'rtburchaklar yasaladi. To'rtburchak oddiy qora qalam bilan to'rt qismga bo'linadi. Chiziqlar kesishgan nuqtadan radiusi 10 mm bo'lgan aylana chiziladi. To'rtburchakning tomonlari tartib raqamlari bilan belgilanadi. Shundan so'ng xromatografiya qog'oz Petri kosachasiga (7-rasmdagi kabi) o'rnatiladi. Uning chetlari Petri kosachasining ustida bo'lishi kerak.

2. Har qaysi bo'linmaga ingichka tomizgich yordamida sinama aminokislota va ularning aralashmasi ehtiyyotlik bilan tomiziladi (8-rasm). Erituvchilarining shimalishi uchun xromatografiya qog'ozining o'rtasidagi teshikchaga filtr ustunchasi o'rnatiladi. Xromatografiya kameraga shu teshikcha orqali qalin nina bilan 10-15ml erituvchi solinadi. Idishning tubi erituvchi bilan to'ldirilgan bo'lishi kerak. Kamera qopqoq bilan berkitiladi. Filtr orqali erituvchi sekin-asta xromatografiya qog'ozining yuqorisiga qarab yo'naladi. Erituvchi xromatogramma chegarasiga yaqinlashganda jarayon tugatiladi, erituvchi yetgan chegara qalam bilan belgilanadi. Shundan keyin xromatogramma maxsus moslamaga joylashtirilib, $100-120^{\circ}\text{C}$ li quritilgich shkafda quritiladi, shunda ajratilagan aminokislolar qog'ozga o'rnatiladi. Quritish jarayoni 5-10 daqiqa, ya'ni erituvchining hidi atrofga tarqalguncha davom ettiriladi. Quritilgan xromatogramma aminokislolarini aniqlash uchun ningidrin eritmasi purkaladi va yana quritiladi. Natijada aminokislolar o'nashgan joyda bog' hosil bo'ladi (8-rasm).

3. Har qaysi aminokislotaning « Rf » si topiladi va sinama aminokislota bilan aralashmadagi aminokislota solishtiriladi.

Olingen natijalarni rasmiylashtirish. Xromatografiya usulining asoslanishini, turini hamda olingen natijalarni daftarga yozib, tegishli xulosa chiqaring. Aminokislotalarni aniqlashning ahamiyatini eslab qoling.

4-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ **OQSILLARGA HOS SIFAT REAKSIYALAR** **OQSIL MIQDORINI BIURET USULI BILAN ANIQLASH**

Usulning asosi. Barcha oqsillar ishqoriy muhitda mis (II) sulfat eritmasi bilan binafsha rangli birikma hosil qiladi. Eritmaning rangi oqsil miqdoriga to‘g‘ri proporsional. Bo‘yalgan eritma kolorimetrlanadi, topilgan eritma zichligiga ko‘ra avvaldan tayyorlangan o‘lchov egri chizig‘idan oqsil miqdori topiladi.

Tekshiriluvchi material: 05.; 1,0; 1,5% li va konsentratsiyasi noma’lum bo‘lgan oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Biuret reaktivi (tayyorlanishi 284-betda).

Kerakli anjomlar: Probirkalar, shtativlar, byuretkalar. Fotoelektrokolorimetr (FEK), qalinligi 1 sm bo‘lgan kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. To‘rtta quruq probirkaga olib uning birinchisiga 0,5% li, ikkinchisiga 1,0% li, uchinchisiga 1,5% li oqsil eritmasi solinadi. Ushbu eritmalar o‘lchov egri chizig‘ini tayyorlash uchun kerak bo‘ladi. To‘rtinchida probirkaga miqdori noma’lum bo‘lgan oqsil eritmasidan solinadi. Maqsad ana shu probirkadagi oqsil miqdorini aniqlash hisoblanadi.

2. Har qaysi probirkaga 4 ml dan biuret reaktivi quyiladi, yaxshilab aralashtirilgach, xona haroratida 20 daqiqaga qoldiriladi. Shunda eritma asta-sekin rangga kiradi. Rangli eritmaning zichligi yashil nur filtri qarshisida (FEK ning 540 nm to‘lqin uzunligida) 1 sm qalinlikdagi kyuvetada o‘lchanadi. Nazorat sifatida biuret reaktividan foydalaniladi.

3. Birinchi uchta probirkadan olingen natija bo‘yicha o‘lchov egri chizig‘i chiziladi. Ordinata o‘qiga optik zichlik natijalari, abssissa o‘qiga esa konsentratsiyasi ma’lum bo‘lgan doimiy eritma natijalari keltiriladi.

Miqdori noma’lum bo‘lgan oqsil eritmasi zichligini bilgan holda o‘lchov egri chizig‘idan foydalanib, izlangan oqsil miqdori topiladi.

Olingen natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosini, o‘lchov egri chizig‘ini va topilgan oqsil miqdorini daftaringizga yozib, tegishli xulosa chiqaring.

OQSIL MIQDORINI LOURI USULI BILAN ANIQLASH

Ushbu usul bilan juda kam miqdordagi oqsilni aniqlash mumkin.

Usulning asosi. Usul ko‘k rangga bo‘yalgan mahsulotlarning hosil bo‘lishiga asoslangan. Oqsil ishqoriy sharoitda mis ionlari bilan biuret reaksiysi va molibdenfosfat tuzlarini, volframfosfat tuzlari bilan qaytarilib ko‘k rangni hosil qiladi. Rangning och-to‘qligi oqsil miqdoriga bog‘liq.

Tekshiriluvchi material: oqsilning 1% li va 50,100 marta suyultirilgan eritmalar.

Reaktivlar: «S» va «E» reaktivlari.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, 1 ml li o‘lchov pipetkasi, byuretkalar, FEK, 1 sm qalinlikdagi kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. Bir qator probirkalarga jadvalga muvofiq oqsil eritmalarini va tegishli reaktivlar solinadi.

1-jadval

| Probirkalarni ng tartibi | Oqsil eritmasi | Suv | E reaktivi | S reaktivi | Optik zichlik |
|--------------------------|----------------|---------|------------|------------|---------------|
| 1 | - | 1 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 2 | - | 1 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 3 | 0,15 | 0,85 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 4 | 0,2 | 0,8 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 5 | 0,3 | 0,7 ml | 5 ml | 0,5 ml | |
| 6 | 0,5 | 0,5 ml | 5 ml | 0,5 ml | |

Eritma solingan probirkalar yaxshilab aralashtiriladi va xona haroratida 30 daqiqa qoldiriladi. Probirkadagi eritmalar oqsil miqdoriga bog‘liq holda bo‘yaladi. Probirkadagi eritmalar vaqt o‘tgandan so‘ng (670 nm to‘lqin uzunligida) qizil nur filtrida, 1 sm qalinlikdagi kyuvetada fotoelektrokolorimetrlanadi yoki 660 nm to‘lqin uzunligida spektrofotometrlanadi. 3-6- probirkalarga oqsil miqdori bo‘yicha o‘lchov egri chizig‘i chiziladi va undan foydalanib tekshirilayotgan oqsil miqdori topiladi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Usulning asosi, o‘lchov egri chizig‘i va noma’lum oqsil miqdori daftarga yoziladi, tegishli xulosa chiqariladi.

5-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ OQSIL VA PEPTIDLARNI TOZALIK DARAJASINI TAHLIL QILISH YOLLARI

Hujayra tarkibidagi oqsilni ajratib olish va tozalash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. hujayra devorini buzish, hujayra struktura elementlarini ajratib olish va ulardan oqsilni sollyubilizatsiyalash, ya’ni oqsilni eritmaga o’tkazish;

2. tegishli oqsilni boshqa oqsillardan ajratish yoki qisman tozalash (cho'ktirish, tuzlash).

3. oqsilni gelb — filtratsiya, ion almashinuv yoki adsorbsion xromotografiya hamda gelb — elektroforez va boshqa usullar yordamida to'liq tozalash.

HUJAYRA OQSILINI AJRATISH

Hujayra oqsilini ajratib olish uchun dastlab hujayra bir butunligini ta'minlab turuvchi hujayra devorini buzish lozim. Bu jarayonni amalga oshirish uchun kerakli uslub va sharoit ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib tanlanadi. Masalan: xayvon organlari, o'simlik barglari qaychi va pichoq yordamida kesib maydalanadi (yoki go'sht qiymalagichdan chiqariladi) va maxsus gomogenizator yordamida bir xil massa — gomogenat holiga keltiriladi. Bakteriya va boshqa mikroorganizmlar biomassasidan gomogenat hosil qilishda kvarts yoki shisha qum, maxsus inert moddalardan tayyorlangan mayda sharchalar bilan xovonchada ezish, ul'tratovush ta'sir ettirish, press yoki tegirmondan o'tkazish kabi usullardan foydalaniladi.

Mikroorganizm hujayrasining mustahkam devorini buzishda gidrolitik fermentlar keng qo'llaniladi. Masalan: lizotsim hujayra devorini hosil qiluvchi peptidoglikanni parchalaydi, bunda hujayra protoplastiga ziyon etmaydi, hujayraning bir butunligi saqlanib qoladi. «Devorsiz» hujayrani distillangan suvga solib hujayra oqsilini eritmaga o'tkazish mumkin. Distillangan suv hujayraning yarim o'tkazgich membranasi orqali ichkariga kirib, u erdag'i osmotik bosimni oshiradi, natijada hujayra yoriladi. Hujayraning komponentlari bilan bir qatorda tsitoplazmatik oqsillar ham eritmaga o'tadi. To'qimani (hujayrani) gomogenlash, oqsilni ekstraktsiya qilish, ajratish va tozalash vaqtida temperatura, eritma muhitining rN ko'rsatkichi katga ahamiyatta ega. CHunki oqsillar labill moddalar bo'lib xona temperaturasida qisman denaturatsiyaga uchrashi, fermentlar esa o'z aktivligini yo'qotishi mumkin. SHu sababli barcha jarayonlar past temperaturada (2°S dan $+4^{\circ}\text{S}$ gacha) olib boriladi.

Eritma muhiti oqsilning xususiyatiga ko'ra tanlanadi. Asosan rN —7 bo'lган bufer eritmalar qo'llaniladi, chunki ko'pchilik fermentlar o'ta ishqoriy, hamda nordon muhitlarda o'z aktivligini yo'qotadi. Ajratib olish va tozalash vaqtida ferment stabilligini oshirish uchun bufer eritmaga EDTA, merkaptoetanol, saharoza kabi stabillovchi moddalar qo'shish mumkin.

Hujayra devori buzilib, oqsil eritmaga o'tkazilgach, gomogenat tsentrifugalanadi. Bunda hujayra qobiqlari cho'kadi va eritmada erigan moddalar, shu jumladan oqsillar ham supernatantga o'tadi. CHo'kma 1—2 marta bufer eritma bilan yuvib tsentrifugalanadi va supernatant avvalgilariga qo'shiladi. Keyingi tozalash ishlarida tiniq holdagi supernatant qo'llaniladi, cho'kma esa tashlab yuboriladi.

OQSILLARNI QISMAN TOZALASH

Ajratib olingan supernatant tarkibida xususiyatlari o'rganilayotgan oqsildan tashqari yana ko'plab boshqa oqsillar ham mavjud. Ulardan tegishli oqsilni ajratib olishda oqsillarning eruvchanlik xususiyatidan foydalilanadi. Ko'pchilik oqsillarning eruvchanligi muhitning rN ko'rsatkichi, ion kuchi, og'ir metall ionlari va organik erituvchilarning ta'siriga bog'liq bo'lib, har bir oqsil uchun o'ziga xosdir. Qisman tozalash davomida tegishli oqsil eritmada qoldirilib, «keraksizlari» cho'kmaga tushiriladi yoki aksincha tegishli oqsil cho'kmaga tushirilib, tsentrafuga yordamida ajratib olinib, supernatant tashlab yuborilishi mumkin.

Oqsilni cho'ktirish uchun quyidagi usullar qo'llaniladi: termik ishlov, eritma rNni o'zgartirish, og'ir metal ionlari, organik erituvchi va tuzlar yordamida cho'ktirish.

Termik ishlov berish usulidan faqat termostabil oqsillarni ajratib olishda foydalilanadi. Eritmaning rN muhitini o'zgartirish usuli bilan cho'ktirish oqsilning izoelektirk nuqtasini hisobga olgan xolda olib boriladi. Kislota yoki ishqorni tomchilatib qo'shish natijasida muhitning rNi o'zgartiriladi va oqsilning izoelektrik nuqtasiga mos kelganda cho'kma hosil bo'ladi. CHo'kma tsentrifugada ajratib olinadi, eritmada qolgan nokerak oqsillar tashlab yuboriladi.

Oqsillarni cho'ktirishda og'ir metall ionlaridan simob, qo'rg'oshin, mis, kumush ishlataladi. Bu xolda oqsil denaturatsiyaga uchraydi va murakkab kompleks hosil qilib cho'kmaga tushadi. Bunday cho'ktirishda tez qayta ishlov berish hal qiluvchi rol o'yndaydi. CHunki yuqoridagi ionlarning uzoq vaqt ta'sir etishi qaytmas denaturatsiyaga olib kelib, fermentlarning inaktivatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin.

Organik erituvchilardan — metanol, etanol, atseton oqsil molekulasining suvli qavatini tortib oladi (degidratlash). Natijada oqsillar birikib cho'kmaga tushadi. Xona haroratidagi organik erituvchilar oqsilning qaytmas denaturatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. SHu sababli organik erituvchilarni 15° — 20°S gacha sovutib eritmani aralashtirib turgan holda asta —sekin qo'shiladi.

Ko'pchilik hollarda oqsilni tozalash uchun bir necha usul ketma —ket qo'llaniladi. Oqsillarni cho'ktirishda eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri neytral tuzlar yordamida tuzlash hisoblanadi. Bu usul bilan cho'ktirishda ko'pincha ishqoriy —er metallarining tuzlaridan foydalilanadi.

6-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ

ZAMONAVIY SPEKTROFOTOMETRIK USULLAR YORDAMIDA OQSIL VA PEPTIDLARNI TUZILISHINI ORGANISH USULLARI OQSIL MIQDORINI SPEKTROFOTOMETRIK USUL BILAN ANIQLASH

Oqsil tarkibiga kiruvchi aminokislotalardan triptofan, tirozin, fenilalanin ultrabinafsha nurlarni (kamroq darajada) yutish qobiliyatiga ega. 280 nm to‘lqin uzunligidagi oqsil eritmalarining zichligi yuqoridagi aminokislotalar miqdoriga to‘g‘ri proporsional. Ushbu usul oqsil aralashmasining turli miqdorini o‘lchashda yaxshi natija beradi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: triptofan, tirozin va oqsil eritmalar.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, o‘lchovli pipetkalar spektrofotometr.

Bajariladigan ish tartibi. Rangsiz va tiniq triptofan, tirozin va oqsil eritmalarini navbatida bilan 280 nm to‘lqin uzunligidagi va 1 sm qalinlikdagi kyuvetada spektrofotometrdan o‘tkaziladi, so‘ngra eritmalarining optik zichligi topiladi. Topilgan zichlik bo‘yicha oldindan tayyorlangan o‘lchov egri chizig‘idan foydalanib tegishli miqdorlar aniqlanadi. Oqsil miqdori Adams nomogrammasidan topilishi mumkin.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Spektrofotometrik usulning asosini, olingan natijalarni daftaringizga yozib, xulosa chiqaring.

Quyidagi savollarga javob bering.

1. Oqsil miqdorini qanday usullar bilan aniqlash mumkin?
2. Biuret, Louri, spektrofotometrik usullar qanday reaksiyalarga asoslangan. Ushbu usullarning qaysi biri orqali oqsilning eng kam miqdorini o‘lchashi mumkin?
3. Biologik suyuqlikdagi oqsil miqdori 15 mg/l ni tashkil qilsa, qanday usuldan foydalanish ma’qulroq bo‘ladi?

7-АМАЛИЙ МАШФУЛОТ

FERMENTLAR, GORMONLAR VA BOSHQA BIOLOGIK FAOL OQSILLARNI FUNKSIYALARINI SHRGANISH USULLARI

BUQOQ BEZI YOKI QORA TALOQ TO‘QIMASIDAN DEZOKSIRIBONUKLEOPROTEINNI AJRATISH

Dezoksiribonukleoproteinni buqoq bezi to‘qimasidan ajratib olish uning ishqoriy va tuzli eritmalarida yaxshi erib, suvda erimasligi va shuning uchun ishqoriy eritmalarini neytrallaganda yoki tuzli eritmalarini suyultirilganda DNP

cho'kmaga tushishiga bog'liq. Dezoksiribonukleoprotein (DNP) tarkibidagi DNK ni dezoksiribozani ochadigan sifat reaksiya orqali topish mumkin. Buning uchun DNP kislota difenilamin reaktivini bilan qizdiriladi. Natijada DNP gidrolizlanib, dezoksiriboga ajraladi va difenil reaktivini bilan ko'k rang hosil qiladi. DNP tarkibidagi oqsil esa biuret reaksiyasi yordamida ochiladi.

Tekshiriluvchi material: buqoq bezi yoki qora taloq to'qimasi.

Reaktivlar: natriy xloridning 5% li eritmasi, natriy gidroksidning 0,4 va 10% li eritmalari, mis (II) sulfatning 1% li eritmasi, difenilamin reaktivini distillangan suv, shisha kukuni.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, chinni hovonchalar, voronkalar, shisha tayoqchalar, 100-150 ml li kimyoviy stakan, doka filtrlar, suv hammomi, tarozi, qadoq toshlari. 25 va 100 ml li o'lchov silindrlar.

Bajariladigan ish tartibi. DNP ni ajratish. Buqoq bezi yoki qora taloqdan 0,5 g olib 100 mg shisha kukun qo'shiladi va 15 ml 5% li natriy xlorid eritmasidan ohistalik bilan chinni hovonchaga solib ishqalanadi. Bir xil holatga keltirilgan aralashma doka filtdan o'tkaziladi. So'ngra stakanga shisha tayoqchasi bilan astasekin aralashtirilgan holda 80-90 ml filtdan o'tkazilgan suyuqlik solinadi. Suvda eritmaydigan DNP cho'kmaga tushadi, uning cho'kma-ipchalari shisha tayoqchaga o'raladi va toza probirkaga shisha tayoqcha orqali asta o'tkaziladi.

DNP ipchalari 1-2 ml 0,4% li natriy gidroksid eritmasi bilan eritiladi (DNP ipchalarini to'liq erishini kuzating).

2. DNK ni aniqlash. 5-10 tomchi DNP eritmasiga ikki marta ko'p hajmda difenilamin reaktivini solinadi va probirka 5-10 daqiqaga qaynab turgan suv hammomiga quyiladi. Eritma sekin-asta ko'k rangga kiradi, chunki difenilamin dezoksiriboga bilan reaksiyaga kirishadi.

3. DNP tarkibidagi oqsilni aniqlash. 5-10 tomchi DNP eritmasiga 10 tomchi 10% li natriy gidroksid eritmasi va 1 tomchi 1% li mis sulfat eritmasi solib biuret reaksiyasi o'tkaziladi. Ko'kimtir-binafsha rang hosil bo'lishi oqsil borligini isbotlaydi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. DNP ajratish usulini, DNP ning tarkibiy qismi va aniqlash reaksiyalari natijasini daftaringizga yozing.

DNK MIQDORINI KALORIMETRIK USULI BILAN ANIQLASH

Usulning asosi. DNK tarkibidagi dezoksiriboga difenilamin bilan ko'k rang hosil qiladi. Rangning zichligi DNK miqdoriga to'g'ri proporsionalligidan, fotoelektrokolorimetrdan foydalilaniladi.

Tekshiriluvchi material: DNK ning suvli eritmasi.

Reaktivlar: difenilamin reaktivini distillangan suv.

Kerakli anjomlar: probirka va shtativlar, 1-2 ml li o'lchov pipetkalari, FEK, 0,5 sm qalinlikdagi kyuvetalar.

Bajariladigan ish tartibi. Bitta tekshiruv va bitta nazorat probirkasi tayyorlanadi. Birinchisiga DNK ning suvli eritmasidan 1 ml, ikkinchisiga 1 ml distillangan suv solinadi. Har ikkala probirkaga 2 ml dan difenilalanin reaktivi solib, 10 daqiqa suv hammomida ushlab turiladi. Bir ozdan so'ng probirkalardagi suyuqliklar sovitiladi va FEK ning qizil nur filtrida nazorat suyuqligi qarshisida ko'rildi. Tekshiriluvchi DNK ning optik zichligini topgach, o'lchov egri chizig'idan uning miqdori aniqlanadi.

O'lchov ergi chizig'ini tayyorlash. 3 ta probirkaga konsentratsiyasi turlicha bo'lgan (50, 100, 200 mkg/ml) DNK eritmasidan 1 ml va difenilamin reaktividan 2 ml solib, 10 daqiqa qaynab turgan suv hammomida qizdiriladi. Eritma sovitilgach yuqoridagidek fotoelektrokolorimetrlanadi. Topilgan optik zichlik va DNK miqdoridan o'lchov egri chizig'i tuziladi. Abssissa o'qiga DNK miqdori, ordinata o'qiga optik zichliklar keltiriladi.

Olingan natijalarni rasmiylashtirish. Daftaringizga o'lchov egri chizig'ini chizing. Usulning asosini va topilgan DNK miqdorini daftaringizga yozing.

KOLORIMETRIK USUL BILAN RNK MIQDORINI ANIQLASH

Usulning asosi. RNK tarkibidagi pentoza ortsin reaktivi bilan rangli birikma hosil qiladi. Rangning optik zichligi kolorimetrda o'lchanadi va o'lchov egri chizig'idan RNK miqdori topiladi.

Tekshiriluvchi material: RNK ning suvli eritmasi.

Reaktivlar: ortsin reaktivi (tayyorlanishi 509-betda) distillangan suv.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, pipetkalar, FEK, 0,5 sm qalinlikdagi kyuveta.

Bajariladigan ish tartibi. 1. Tekshiruv tajriba probirkasiga 1 ml RNK eritmasi va 2 ml ortsin reaktivi solinadi. Nazorat probirkasiga esa 1 ml distillangan suv va 2 ml ortsin reaktivi solinadi. Ikkala probirka suv hammomida 20 daqiqa tutib turiladi. Bir ozdan so'ng eritmalar sovitilib, FEK ning qizil nur filtrida nazorat probirkasi qarshisida optik zichlik topiladi. RNK ning miqdori o'lchov egri chizig'idan aniqlanadi.

2. O'lchov egri chizig'ini tayyorlash. 3 ta probirkaga 1 ml dan 50, 100, 200 mkg/ml RNK eritmasi suv hammomida qizdiriladi. 20 daqiqa o'tgach, eritmalar sovitilib, FEK da ularning optik zichligi aniqlanadi. Abssissa o'qiga RNK ning miqdori, ordinata o'qiga optik zichlik keltirilib, o'lchov egri chizig'i tuziladi.

Olingen natijalarini rasmiylashtirish. Daftaringizga usulning asosini, o‘lchov egri chizig‘ini va aniqlangan RNK miqdorini yozing.

FOSFOPROTEIDLAR






Murakkab oqsillar – fosfoproteidlар тарқибидаги фосфор кислота колдиг‘и (0,5-0,9%) мавjud. Улар оқсил молекуласига серин ва треонин аминокислоталарининг гидроксил гурӯхи орқали бирикади.


Fosfoproteidlар вакилига сут казиени. Тукум оқсили – вителин, балиқ тукуми оқсили – иксителин ва айrim fermentlar – фосфорилаза, фосфоглюкомутаза, пепсин ва бoshqalar kiradi. Fosfoproteidlар embrion тараqqiyoti va organizm uchun zarur oziqa mahsuloti hisobланади. Sut kazieni тарқибидаги барча о‘rnini almashtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar va suyak to‘qimalarining o‘sishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan fosfor va kalsiy bor, ular to‘la sifatli oqsillar qatoriga kiradi.

Kazein оқсилини сутдан ajratish va tarkibiy qismlarini aniqlash (2-ishda keltirilgan) bilan siz oqsillarni biologik suyuqliklardan ajratish bo‘limida tanishgansiz.


GLIKOPROTEIDLAR

Glikoproteidlар – оқсил ва оқсил bo‘lмаган нейтрал ва нордон гликоzaminglikanlardan tashkil topган murakkab оқсил hisobланади. Karbonsuv тарқибига geksozolar, geksozaminlar (glyukozamin, galaktozamin, mannozamin), glyukuron, sial kislotalar, sirka, sulfat, neytramin kislotasi va L-fruktozalar kiradi.






D-glyukozamin



atsetil-N-glyukozamin



glyukuron kislota

Glikoproteidlar tarkibida 85-95% gacha uglevodlar bo‘lganda ular uglevod xossasini namoyon qiladi va aksincha, 85-95% oqsil bo‘lganda oqsil tabiatiga ega bo‘ladilar.

Uglevod tabiatli glikoproteidlar glyukozaminglikanlar deyiladi. Shunday nordon glyukozaminglikanlarga gialuron, xondriatinsulfatlar va heparin kiradi. Neytral glikozaminlar tarkibiga neytral shakarlar (galaktoza, mannoza, L-fruktozalar) va sial kislota kiradi.

Gialuron kislota biriktiruvchi to‘qima. Ko‘z qorachig‘i, sariq tana, kindik tizimchasi, yurak klapanlari tarkibiga kiradi. Gialuron kislota glyukuron, atsetil glyukozamin va disaxaridlarning polimeridir. Ularning nisbiy molekulyar massasi milliondan ortiq. Xondriotin sulfat kislota tog‘ay va biriktiruvchi to‘qimalar, heparin esa jigar va o‘pka to‘qimalari tarkibiga kiradi.

Neytral glyukozaminglikanlar so‘lak, me’da shirasi, bachadon o‘sintalari, qon plazmasi, qon guruhini aniqlovchi moddalar, gormonlar, fermentlar (seruloplazmin, transferin, xolinesteraza) tarkibida bo‘ladi. Glyukozaminglikanlarni organizm to‘qimalaridagi suyuqliklar tarkibida erkin holda uchratish mumkin.

Glikoproteidlar organizmda tayanch - himoya vazifasini bajaradi. Ular hujayralararo va to‘qiamalararo moddalar tarkibiga kirib qovushtiruvchi ta’sir ko‘rsatadi, bo‘g‘imlarni bog‘lovchi vosita hisoblanadi.

SO‘LAK TARKIBIDAGI MUTSINNI AJRATISH

Tuxum oqsili va mutsin tarkibidagi uglevodlarni Molish reaksiyasi yordamida aniqlash mumkin.

Tekshiriluvchi material: tuxum oqsilining 10% li eritmasi, so‘lak.

Reaktivlar: sirkal kislotaning konsentralangan eritmasi, sulfat kislotaning konsentrangan eritmasi, timolning 1% li spirtli eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, shtativlar, pipetkalar, shisha tayoqchalar, filtr qog‘izi.

Bajariladigan ish tartibi. 1-2 ml so‘lak probirkaga yig‘iladi va unga 10-20 tomchi sirka kislota tomchilab solinadi. Mutsin cho‘kmaga tushgach, cho‘kma ustidagi suyuqlik asta-sekinlik bilan to‘kib tashlanadi, quyqa esa filtr qog‘ozda quritiladi. Mutsin quyqasi bilan molish reaksiyasi o‘tkaziladi.


Molish reaksiyasi. 10 tomchi mutsin eritmasiga 3 tomchi timolning 1% li spirtli eritmasi solinadi va aralashtiriladi. So‘ngra probirkada devori bo‘ylab ehtiyyotkorlik bilan 20-30 tomchi sulfat kislotaning konsentrangan eritmasi quyiladi. Eritma silkitilganda probirkada furfurolning timol bilan hosil qilgan qizil rangli kondensatsiya mahsuloti ko‘rinadi.

Olingan natijani rasmiylashtirish. Daftaringizga mutsinni ajratish va Molish reaksiyasi asosini hamda uning natijasini yozing.

FENILALANIN VA TIROZIN AMINOKISLOTALARIGA O‘TKAZILADIGAN XUSUSIY SIFAT REAKSIYA (MILLON REAKSIYASI)

Millon reaksiyasi faqat tirozin va fenilalanining xos reaksiya hisoblanadi.

Reaksiyaning asosi. Oqsil eritmasiga Millon reaktiv (simobning nitrat kislotadagi eritmasi) qo‘shilganda tirozin va fenilalaninning benzol xalqasi –



dinitrotirosining simobli tuzi hosil bo‘lgani sababli u qizil rangga kiradi.

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Millon reaktiv.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga 1-2 tomchi Millon reaktiv solinib, ehtiyyotlik bilan qizdiriladi. Qizil rang hosil bo‘ladi.


KUCHSIZ BOG‘LANGAN OLTINGUGURT TUTUVCHI AMINOKISLOTALARGA O‘TKAZILADIGAN REAKSIYA FOLI REAKSIYASI

Sistein va sistin aminokislolarida oltingugurt juda kuchsiz bog‘langan bo‘lib, ularni ishqor yordamida ajratib olish mumkin.

Reaksiyaning asoslanishi. Ishqoriy gidroliz natijasida ajralgan oltingugurt qo‘rg‘oshin bilan birikib, qora rangli qo‘rg‘oshin sulfid tuzini hosil qiladi. Bu tuz eritmada cho‘kma holatda bo‘ladi.

Ushbu reaksiya sistin almashinuvi buzilganda aniqlanadi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Qora rangli cho‘kma

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: Foli reaktivi.


Kerakli anjoslar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.


Bajariladigan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga shuncha miqdorda Foli reaktivi solib qizdiriladi va 1-2 daqiqaga qoldiriladi. Shunda qoramtil qo‘rg‘oshin sulfid cho‘kmasi hosil bo‘ladi.

METIONINGA O‘TKAZILADIGAN NITROPRUSSID REAKSIYASI

Reaksiyaning asoslanishi. Metionin ishqoriy sharoitda natriy nitroprussid bilan qizil rangli kompleks birikma hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:





kondensatsiyalangan birikma

Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi.

Reaktivlar: natriy gidroksidning 20% li eritmasi, natriy nitroprussidning 5% li eritmasi.

Kerakli anjomlar: probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.


Bajariladgan ish tartibi. 5 tomchi oqsil eritmasiga 4-5 tomchi natriy gidroksidning 20% li eritmasidan solib bir necha daqqa qizdiriladi. Eritma sovitiladi va unga 2-3 tomchi natriy nitroprussid eritmasi tomiziladi. Suyuqlik qizil tusga kiradi.

Olingen natija 8-jadvalga yoziladi.

ARGININGA O'TKAZILADIGAN SAKAGUTI REAKSIYASI

Reaksiyaning asoslanishi. Argininning guanidin guruhi α -naftol ishtirokida ishqoriy muhitda gipobromid bilan oksidlanib, pushti-qizg'ish rangli kondensatsiyalangan mahsulot hosil qiladi.

Reaksiya tenglamasi quyidagicha:



Tekshiriluvchi material: oqsil eritmasi yoki 0,01% li arginin eritmasi.

Reaktivlar: natriy gidroksidning 10% li eritmasi, α -naftolning 0,2% li spirtli eritmasi, natriy gipobromidning 2% li eritmasi, mochevina eritmasi.

Kerakli anjomlar: Probirkalar, pipetkalar, shtativlar va spirt lampasi.

Bajariladigan ish tartibi. Probirkalarning biriga oqsil eritmasidan 10 tomchi, ikkinchisiga 0,01% li arginin eritmasidan 10 tomchi solib ularning har qaysisiga 10% li natriy gidroksid eritmasidan 10 tomchi va α -naftolning 2% li spirtli eritmasidan solinadi va yaxshilab aralashtiriladi. So‘ng ularga natriy gipobromid eritmasidan solinadi. Eritmaga 40% li siydikchil eritmasidan 5 tomchi solinganda pushti-qizg‘ish rang hosil bo‘lishi tezlashadi. Eritma pushti-qizg‘ish tusga kiradi.

Amaliymashg‘ulotlar bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi

- 1.Oqsil molekulasining aminokislota tarkibini aniqlash usullari.
2. Biologik materiallardan oqsil va peptidlarni toza holda ajratib olish usullari.
3. Oqsil va peptidlarning aminokislota ketme ketligini aniqlash usullari.
4. Oqsillarga hos sifat reaksiyalar.
5. Oqsil va peptidlarni tozalik darajasini tahlil qilish yollari.
6. Zamonaviy spektrofotometrik usullar yordamida oqsil va peptidlarni tuzilishini organish usullari.
- 7.Fermentlar, gormonlar va boshqa biologik faol oqsillarni funksiyalarini shrganish usullari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Asosiy adabiyotlar

1. C. Branden,J. Tooze. «Introduction to protein Strukture», 2-nd edition, Garland Publishing, 1999.
2. Овченников Ю.А. «Биоорганическая химия», М. Просвещение, 1984.
3. Zikryaev A., Mirxamidova P. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. Darslik. Т.:Tafakkur bo’stoni. 2013.-223b
4. Рахматов Н.А., Махмудов Т.М., Мирзаев С. Биокимё. Дарслік -Т.: Таълим, 2009. -528 б.
5. Патрушев Л.И. Искусственные генетические системы. Т1. Генная и белковая инженерия. –М. Наука, 2004, 525 стр.

6. Igamnazarov R.P., Abdullayeva M.M. «Biokimyodan laboratoriya mashg'ulotlari». -Toshkent. Universitet. 2015

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Гидранович Б.И., Гидранович А.Б. «Бохимия» Учебное пособия. Минск. ТетраСистемс. 2014. –с.528.
2. Альбертс Б., Брей Д., Льюис Д., Рэфф М., Робертс К., Уотсон Д. Молекулярная биология клетки. Изд, Мир., 1986. –с.224
3. Hamrayev Sh.A va b. Biologik kimyo va molekulyar biologiya. 1-qism Darslik. T.: Tafakkur bo'stoni. 2014. -224 b.
4. T/ Creighton. «Proteins»?, 2-nd edition: «Strukture and molecular properties» Freeman and Company, NY, 1993.
5. G.Karp. «Cell and Molecular biology», 2-nd edition, John Willey @Sons Ins., 1999

Axborot manbaalari

1. www.ziyonet.uz
2. www.bio.ru
3. www.biotex.ru
4. www.promega.com
5. www.molbio.ru
6. www.ziyonet.uz

MUNDARIJA

| | KIRISH | 3 |
|---|---|-----------|
| 1 | OQSIL MOLEKULASINING AMINOKISLOTA TARKIBINI ANIQLASH USULLARI | 4 |
| 2 | SIKLIK AMINOKISLOTALARGA O'TKAZILADIGAN KSANTOPROTEIN REAKSIYASI | 5 |
| 3 | OQSIL GIDROLIZATI – AMINOKISLOTALAR ARALASHMASINI XROMATOGRAFIYA USULI BILAN AJRATISH | 6 |
| 4 | OQSILLARGA HOS SIFAT REAKSIYALAR OQSIL MIQDORINI BIURET USULI BILAN ANIQLASH | 8 |
| 5 | OQSIL VA PEPTIDLARNI TOZALIK DARAJASINI TAHLIL QILISH YOLLARI | 10 |
| 6 | ZAMONAVIY SPEKTROFOTOMETRIK USULLAR YORDAMIDA OQSIL VA PEPTIDLARNI TUZILISHINI ORGANISH USULLARI | 12 |
| 7 | FERMENTLAR, GORMONLAR VA BOSHQA BIOLOGIK FAOL OQSILLARNI FUNKSIYALARINI SHGANISH USULLARI | 13 |
| 8 | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR. | 20 |